

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI HARAKAT MODIFIKATORLARINING BADIY DISKURSDA VOQELANISHI

**Shaxnoza Soibnazarovna UZOQOVA**

Tayanch doktorant

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

## РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ МОДИФИКАТОРОВ ДЕЙСТВИЯ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИСКУРСЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

**Шахноза Соибназаровна УЗОКОВА**

Докторант

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

## REPRESENTATION OF ACTION MODIFIERS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES IN LITERARY DISCOURSE

**Shakhnoza Soibnazarovna UZOKOVA**

PhD student

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan [shakhnozauzokova@gmail.com](mailto:shakhnozauzokova@gmail.com)

UDC (UO'K, УДК): 81'42

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Uzoqova Sh.S. Ingliz va o'zbek tillaridagi harakat modifikatorlarining badiiy diskursda voqelanishi // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 5 (52). — B. 109-121,

<https://doi.org/10.36078/1697003318>

**Received:** August 10, 2023

**Accepted:** October 03, 2023

**Published:** October 05, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

**Annotatsiya.** Dunyo tilshunosligida badiiy diskursda modifikatsiya jarayonini voqelanish qonuniyatlariga va uning muloqot jarayonida qo'llanilishini yoritish hamda kommunikativ maqsadni ro'yobga chiqaradigan lisoniy usullarni kognitiv-pragmatik va lingvomadaniy yo'nalishlarda tahlil qilishga doir ilmiy izlanishlar izchil amalga oshirilmoqda. Izlanishlarning aksariyati faqat alohida olingan bir til uchun xos bo'lib, qardosh bo'lmagan tillardagi harakat modifikatorlarining chog'ishtirma aspektda lingvomadaniy jihatdan tadqiqi amalga oshirilmagan, shu bois harakat modifikatorlarining kognitiv-diskursiv voqelanish holatlarini qiyosiy-chog'ishtirma tahlillar asosida o'rganish zarurati mavjud. Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy diskursda voqelangan harakat modifikatorlarining funksional-semantik xususiyatlarini ochib berish maqsad qilingan. Bu maqsadga erishish uchun diskursda harakatni modifikatsiya qilish kognitiv jarayon sifatida o'rganildi, ingliz va o'zbek tillarida harakat modifikatorlari vazifasini bajaruvchi til birliklarining funksional-semantik jihatdan tahlili amalga oshirildi. Bundan tashqari, harakat modifikatorlarining turli tillarga xos bo'lgan belgilaridagi o'xshashlik va farqlarning tabiati yoritildi. Natijada badiiy diskursdagi harakat modifikatorlarining funksional imkoniyatlari va semantik xususiyatlarini o'rganish orqali bu til elementlarining pragmatik samaradorligi ko'rsatib berildi.

**Kalit so'zlar:** dunyoning lisoniy tasviri; modifikatsiya; pre-pozitiv modifikatsiya; post-pozitiv modifikatsiya; badiiy diskurs; harakat modifikatorlari; distant modifikator.

**Аннотация.** В мировой лингвистике последовательно проводятся научные исследования по выяснению закономерностей процесса модификации в художественном дискурсе и его применению в процессе коммуникации, а также по анализу языковых методов, реализующих коммуникативную цель в когнитивно-прагматическом и лингвокультурном направлении. Большинство исследований проводилось только для одного языка, а лингвокультурологические исследования модификаторов действия в неродственных языках не изучались, поэтому возникает необходимость исследования когнитивно-дискурсивной встречаемости модификаторов действия на основе сравнительного анализа. В статье ставится задача выявить функционально-семантические особенности модификаторов действия в художественном дискурсе в английском и узбекском языках. Исходя из этой цели, модификация действия в дискурсе изучалась как когнитивный процесс, был проведен функционально-семантический анализ языковых единиц, выступающих модификаторами действия в английском и узбекском языках. Кроме того, был выяснен характер сходств и различий признаков модификаторов действия, характерных для разных языков. В результате была продемонстрирована прагматическая эффективность этих языковых элементов путем изучения функциональных возможностей и семантических свойств модификаторов действия в художественном дискурсе.

**Ключевые слова:** языковая репрезентация мира; модификация; препозитивная модификация; постпозитивная модификация; художественный дискурс; модификаторы действия; дистантные модификаторы.

**Abstract.** In world linguistics, scientific research is consistently carried out to clarify the patterns of the modification process in literary discourse and its application in communication, and to analyze language methods that implement the communicative goal in the cognitive-pragmatic and linguocultural areas. This article aims to identify the functional and semantic features of action modifiers in literary discourse in the English and Uzbek languages. The action modification in the discourse was studied as a cognitive process, and functional-semantic analysis of the language units that act as action modifiers in English and Uzbek was carried out. In addition, the nature of the similarities and differences in the features of action modifiers characteristic of different languages was substantiated. As a result, the pragmatic effectiveness of these linguistic elements was demonstrated by studying the functionality and semantic properties of action modifiers in artistic discourse.

**Keywords:** linguistic representation of the world; modification; pre-positive modification; post-positive modification; literary discourse; action modifiers; distant modifier.

**Kirish.** So‘nggi o‘n yilliklarda kognitiv tilshunoslikka doir olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar diqqat markazida inson ongida paydo bo‘ladigan bilim, tasavvur usullari, shuningdek, til birliklarining konseptual mohiyati jamlangan. Konseptual mazmun tilning turli qatlamlari orqali beriladi. Ammo tilshunoslarning ta’kidlashlaricha, konseptual ma’lumotning muhim qismi, til nuqtayi nazaridan eng ahamiyatli ma’no-mazmunlar grammatikada, avvalo, morfologiyada to‘plangan (1, 57). Y.S. Kubryakovaning xulosasi bo‘yicha, “morfologik hodisalarning kognitiv funksiyasi ularning fikrlash jarayonlari davomida ishtirok etadi”. Inson ongining mental

va intellektual faoliyati — ma'lumotni qayta ishlash, uni saqlash, ajratib olish va, nihoyat, uni qayta o'zgartirib foydalanish faoliyati bo'yicha aniqlanadi.

Morfologiyaning bazaviy tushunchalaridan bo'lgan modifikatsiyaning kognitiv jihatlarini o'ziga xos ahamiyatini ta'kidlagan holda, Y.S. Kubryakova bu narsa, ya'ni modifikatsiya "so'zlovchining biror holatni tasvirlashda uning e'tiboridan chiqib keta olmaydigan tafsilotlar" va "dunyo til tasvirida inson tajribasidan nimalar o'z aksini topgan va tasnif qilingan"ligi uchun ko'p muhim masalalarning mohiyatini aniqlashda katta yordam beradi, deb xulosa qiladi (8, 350).

Modifikatsiya termini tilshunoslikka Amerika deskriptivistlari tomonidan olib kirilgan bo'lib, u transformatsion-generativ lingvistika orqali kognitiv tilshunoslikka kirib keldi.

Modifikatsiya termini bu — so'zlovchi tomonidan nutq mahsuloti yaratilayotgan jarayonda borliqdagi voqea, hodisa yoki narsaning nutq momentidagi holatidan kelib chiqib, qandaydir yangi belgi, xossa, xususiyatni qo'shish, narsa, voqea yoki hodisa haqida yangi axborotni kiritish jarayonidir.

Modifikatsiya termini tilshunoslar tomonidan juda ko'p bir-biriga yaqin va bog'langan tushunchalarni bildirish uchun ishlatiladi. Masalan, Mario Peyning "Tilshunoslik terminlari lug'ati"da biz quyidagi ta'riflarni topamiz:

*Modifier is a word, expression or entire clause, which qualifies or limits the meaning of a word* (10, 238).

Bu ta'rifga ko'ra, modifikator so'z, so'z birikmasi yoki butun boshli ergash gap bo'lishi mumkin va modifikator o'zi bog'lanib kelayotgan so'zning ma'nosini sifatlab yoki chegaralab keladi deb izohlangan.

Yana bir ta'rifni keltirib o'tamiz. "*Modifier — a subordinate element usually of a verb phrase which qualifies, describes or restricts the meaning of the head*".

Agar ta'rifning ma'nosini yoritadigan bo'lsak quyidagi izoh hosil bo'ladi: "Fe'l ma'nosini sifatlovchi, xususiyatlarini yoritib beruvchi, tasvirlovchi yoki ma'noni chegaralovchi, cheklovchi tobe element — modifikator, deb nomlanadi".

Masalan, *put the bag here, come earlier* va h.k.

Dunyoning lisoniy tasvirini yaratish borliqdagi narsa, belgi va hodisalarning inson tomonidan anglanishini qayd etishiga olib kelishdir (3, 81).

So'z tushunchaning mavjudlik shaklidir. Agar modifikatorlar mavjud bo'lmasa narsaning u yoki bu tomoni, belgisi talqinsiz, tasvirsiz qoladi. So'z-modifikator bo'lmasa u bildiradigan ma'no ham yo'q, natijada so'zlovchi va tinglovchida o'sha obyekt haqida bilim ham mavjud bo'lmaydi.

Demak, modifikator zaruriy ifoda vositasidir. Faqat til orqaligina fikrlarimiz boshqa odamlarga yetib borishi, tushunarli bo'lishi mumkin ekan, modifikatsiyaning yordamisiz borliq haqida to'liq tasavvurga ega bo'la olmaymiz.

**Asosiy qism.** Modifikatsiya tushunchasi tilshunoslikda predmetning ma'nosi, belgisi, sifati, xususiyati hamda unda ro'y beradigan turli xarakterdagi o'zgarish va o'ziga xoslikni bildiradi. Shu boisdan u tilshunoslikda uchta asosiy tushunchani o'z ichiga oladi:

1. Determinatsiya.
2. Atributivlik.
3. Relyatsiya yoki Adverbial Modifikatsiya (8, 190).

Determinatsiya (Determination) tushunchasi ingliz tilidagi determinativlar deb ataluvchi so'zlar guruhi tomonidan bajariladigan funktsiya bo'lib, u ingliz tilida artikllar, egalik olmoshlari, noaniq olmoshlar, ko'rsatish olmoshlari, inkor olmoshi kabilar yordamida amalga oshiriladi, masalan, *a, an, the, my, his, her, our, your, their, some, any, no* va h.k. O'zbek tilida determinativlar mavjud emas.

Atributivlik ingliz tilidagi *attribute* va o'zbek tilidagi "*aniqlovchi*"ga mos keladi. Atributiv modifikatsiyaning ikki turi bor: pre-modifikatsiya va post-modifikatsiya.

O'zbek tilida atributiv aloqaga kirishgan so'zlarning o'zaro funksional vazifalari bor.

Aniqlovchi va aniqlanmish, ya'ni **modifier and modificant** ular bosh so'z va tobe so'z o'rtasidagi munosabatni bildirishi uchun ishlatiladi. Relyatsiya yoki Adverbial modifikatsiya ingliz tilidagi Adverbial Modifer, o'zbek tilidagi "hol" gap bo'lagiga mos keladi.

Modifikatsiyaning bu uch turi bir-biridan faqat nomi va u bilan bog'lanib kelayotgan so'zning tabiati bilangina farqlanib qolmay, so'zlar o'rtasidagi aloqaning tili bilan ham farqlanadi. Masalan, determinatsiyada so'zlovchining o'zi qo'llaydigan determinativga nisbatan hech qanday modal ma'nosi yoki boshqa bir grammatik munosabati ifoda qilinmaydi. Bu yerda faqat deydik munosabat bildiriladi xolos.

Atributivlikda yuqorida kuzatiladigan obyektivlikdan tashqari subyektiv baholash elementi paydo bo'ladi. Natijada bu grammatik aniqlovchi (atribut), ta'rif (defenisiya) va sifatlash (epitet) va hokazolar borki, ular kognitiv tilshunoslikda u yoki bu jihatda, u yoki bu muammoni muhokama va hal etishda tilshunoslikka kirib kelmoqda.

Modifikatorlarning ko'pchilik tomonidan tilshunoslikda qabul qilingan ta'rifi mavjudki, unga ko'ra "modifikatorlar gapdagi so'z, so'z birikmalarining ma'nosini izohlab, tushuntirib, aniqlab kelmaydi, balki ularga oid qo'shimcha ma'nolarni anglatadi xolos. Ular izohlanayotgan birlikning sinonimi, varianti yoki tarjimai ham emas; ular o'zlari aloqador gap bo'lagi bilan bir yoki yaqin ma'nolarni ifodalamaydi, funktsiya jihatdan ham yaqin bo'lmaydi. Shuning uchun ularni parallel qo'llanilayotgan modifikatorlardagidek, izohlanayotgan so'z, so'z birikmasi bilan o'rnini almashtirgan holda qo'llash qiyin" (13, 84). Chunki noparallel so'z birikmalar, gapning izohlanayotgan komponentiga (qismiga) nisbatan boshqa bir gap bo'lagi funktsiyasida bo'lib, ular ifodalagan ma'no doirasi birinchi tip modifikatorlarga nisbatan kengroqdir. Parallel so'z va birikmalar har doim o'zi aloqador gap bo'lagidan keyin o'rin olsa, noparallel modifikatorlar izohlanayotgan gap bo'lagidan keyin postpozitiv holda

ham, oldin — prepozitiv holda ham joylasha oladi. Ayrim hollarda ularning kiritma sifatida qo'llanilishini so'z tartibining o'zgarishi (inversiya), biror gap bo'lagining o'rnida kelmaganligi natijasi sifatida ham izohlash mumkin.

Shuningdek, noparallel so'z kiritmalar o'zlari aloqador gap bo'lagi yoki qismi bilan bir xil grammatik formaga ega bo'lmaydi; gap bo'lagiga leksik-semantik jihatdan ham, grammatik jihatdan ham parallel hisoblanmaydi.

Modifikatorlar bundan farqli o'laroq, ular ifodalagan qo'shimcha ma'lumotning xarakteri, asosiy gap yoki uning bir qismiga mazmunan bog'liqlik darajasi, grammatik shakliga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin (14,16).

Birinchi guruhga asosiy gapga bevosita aloqador bo'lmagan, manba, biroz obrazli ifoda yoki fikrning kimga qarashli ekanligini, tilga olingan biror shaxs, narsa-predmet kabilarning xususiyatini, millati, kasbi, biror ijtimoiy guruhga yoki hududga mansubligini ko'rsatuvchi modifikatorlar kiradi.

Shuningdek, sintaktik konstruksiyaga mexanik ravishda kiritilgan, gap mazmuni talabidan kelib chiqmagan sharoit, so'zlovchining hissiyoti, emotsional holati, bir vaqtning o'zida ikkinchi boshqa narsa haqida o'ylash kabilar bilan bog'liq bo'lgan kiritmalar ham modifikatorlarning birinchi guruhiga xosdir. Bunday modifikator, odatda, gapning kattaroq qismiga aloqador bo'lib, aksariyat holatlarda biror grammatik shaklga ega bo'lmaydi, bosh kelishikdagi so'zlar orqali ifodalanadi (5, 264).

Bu tip modifikatorlar har doim postpozitiv holda qo'llanilib, odatda, grammatik jihatdan rasmiylashtirilgan bo'lmaydi. Ularning shakli aloqador gap bo'lagining shakli va sintaktik vazifasiga bog'liq emas. Funksiya jihatdan biror gap bo'lagi xarakterida ham bo'lmaydi. To'g'ri, bunday modifikatorlarni ham, ba'zan zarur shaklda, tegishli o'rinda, odatdagi gap bo'lagi sifatida qo'llash mumkindek ko'rinadi. Boshqacha aytganda, ularni funksiya jihatdan biror bir gap bo'lagiga yaqinlashtirish mumkin.

Masalan, yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqadiki, modifikatorlar gap bo'lagi o'rnida kelgandagiga nisbatan kengroq semantik doiraga ega bo'lib, tugal sintaktik konstruksiya orqali bayon qilinadigan xabarga — butun bir fikrga teng keladi. Demak, noparallel so'z kiritmalari bu turining asosiy gap strukturasiidagi alohidaligi va mustaqilligi nisbatan kuchliroq bo'ladi.

Modifikatorning grammatik shakli (masalan, kelishik qo'shimchalari, ko'makchilari kabi) ularning gapda qanday sintaktik funksiyani bajarayotganligi, gapning qaysi bo'laklariga aloqadorligini ko'rsatuvchi belgidir. So'zning ma'lum bir sintaktik funksiyada kelishi esa uning biror so'z turkumiga kirishini, boshqa so'zlar bilan kombinatorikasining qo'shilayotgan qo'shimchaning xarakteristikasi — grammatik shakli va qo'llanish o'rniga qarab, ma'lum bir gap bo'lagi xarakteriga ega bo'ladi. Shunga ko'ra, ular atributiv xarakterdagi modifikatorlar; komplementar modifikatorlar, adverbial modifikatorlar, subyektiv modifikatorlar va predikativ modifikatorlar guruhlariga bo'linadi.

Subyektiv modifikator ish harakat bajaruvchisi haqida turli eksplitsit yoki implitsit axborotni voqelashtiradi (11, 190).

Predikativ modifikatsiya bu gapda an'anaviy tilshunoslikdagi kesimni modifikatsiya qiluvchi so'z yoki so'z birikmalari ma'nosidan kengroq kategoriyadir.

Komplementar modifikatsiya bu an'anaviy tilshunoslikda to'ldiruvchi vazifasiga to'g'ri keladi, ammo uning qamrov ko'lami ancha kattadir.

Atributiv modifikatsiya an'anaviy grammatikadagi aniqlovchining ma'nosidan kengroq ma'noni bildiradi va determinativlar ham modifikatorlar guruhiga kiritilgan.

Adverbial modifikatsiya esa an'anaviy hol vazifasini bajaruvchi so'z va so'z birikmalarini bildirgan ma'nolar va boshqa shu yo'sindagi funksional kategoriyalarni voqelantiradi (7, 210).

Atributiv modifikatorlar vazifasida ko'proq narsa yoki shaxsning biror xususiyati, belgisi haqida qo'shimcha fakt ifodalashga xizmat qiluvchi so'zlar qo'llaniladi. Ular gap strukturasi, odatda, sifatlovchi va izohlovchilar tarzida kiritilib, izohlanayotgan qismga nisbatan o'rni jihatdan inversiyaga uchragan gap bo'lagiga o'xshaydi.

Masalan: *Chaqirilganlar soat o'nlarda (kunduz) "Rahimxoniy" mehmonxonasida rasmiy o'rinlari va amallari tartibi bilan o'tirdilar (S.Ayniy, "Qullar")*.

Bu misolda biz S.Ayniyning yozuvchilik mahoratiga guvoh bo'lamiz. Agar u (kunduz) modifikatorini ishlatmaganida ahvol sal tushunarsiz bo'lib qolaverardi va kitobxon "Odatda, bu kabi yig'inlar, agar hufiyona yig'ilish bo'lsa, ular kechqurun xalq uxlaganda, keraksiz guvohlarsiz, o'tkazilardi. Ularda odatda shohga, xonga yoki amirga qarshi qandaydir yashirin tadbir belgilash, rejalashtirish, o'tkazish, moliyalashtirish imkoniyatlari muhokama qilinar edi. Ammo ikkinchi tomondan kechqurun mehmonxonani yoritish u davrda, aniqrog'i, XIX asrda sham yoki moychiroq yordamida amalga oshirilganligi va mehmonxona ma'muriyati va mehmonlar uchun ham biroz noqulaylik yaratilganligi uchun uchrashuvni kunduzga ko'chirganlar. Yig'inni kunduzga ko'chirishning quyidagi afzalliklari bor edi. Masalan:

1. Yig'ilayotganlar, chaqirilganlarning barchasi boy, amaldor bo'lganligi uchun ular kunduzi yig'ilish o'tkazishga qo'rqmaydigan shaxslar edi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyatning oldi edilar.

2. Agar majlis soat kechki 10 da boshlansa, ikki-uch soatga cho'zilib ketsa, bu juda kech bo'lib ketar edi. Chunki ularning o'zi odatda soat 10 ga qolmay uyquga yotar edilar.

3. Ular har xil kutilmagan chiqimlardan qo'rqadigan kambag'allar emasdilar.

4. Mana shu yuqoridagi presuppozitsiyalarni hisobga olgan holda, S.Ayniy kunduz so'zini qo'shib qo'ygan. Mana shu so'zning o'zi chaqirilganlarning jamiyatda qanchalik katta mavqe va obro'ga ega odamlar ekanligini ta'kidlab o'tardi. Boshqacha qilib aytganda, ular shu qadar o'ziga ishongan boy shaxslar edilarki, boshqalar nima deyishidan cho'chib o'tirmay o'zlari hohlagan ishlarini bajarishga o'rgangan odamlar edi.

*Katta stol atrofida otamning ukasi Yusup aka (student), men, Amin amakivachcham, kichkina Komil ovqatlanardik.* (N. Ismoilov “Afg‘on shamoli”).

Bu misolga kelsak, gapni stol atrofida o‘tirgan to‘rtta kishining eng kichigidan sal kattaroq odam gapirganligi modifikatorlar tomonidan ko‘rsatilgan.

1. So‘zlovchi studentni Yusup aka deb kattaligini eslatib o‘tayapti. Komilni esa kichkina deb aytayapti. Demak, stol atrofida ikkita kattaroq odam — Yusup, Amin, ikkita yoshroq odam gapiruvchi va Komil o‘tirar ekan. Muallif bu holat haqida ko‘proq ma‘lumot berish uchun ular o‘rtasidagi qarindosh-urug‘ligini ham aytib o‘tgan — ammakivachcham, tog‘am. Mazkur gapda bitta noma‘lum so‘z bu — Komilning kimligi, yoshi va nega u qarindoshlar bilan ovqatlanishidir. Chunki bu kichkina Komil gapiruvchi bilan tengligi yoki rostdan ham kichikmi, bilolmaymiz. Chunki gapiruvchi, deganda muallif — “*Komil yoshi bo‘yicha Yusuf va Amindan kichik*” demoqchidir. Yoki bo‘lmasa, ikkinchi holat “*Komil stol atrofida o‘tirganlarni eng kichigi*”, degan fikrni ifoda qilmoqchidir. Biz buni kattaroq kontekstsiz aniqlay olmaymiz.

Yuqorida keltirilgan o‘zbek tilidagi misollarga qiyoslash uchun ingliz tilidagi misollardan ayrimlarini keltiramiz.

1. *Dr. Winchcliffe, my predecessor, was a classmate of my father’s* (Attr.) (M. Sanborn, p. 257).

Bu misolda Doktor Uyinklif so‘zlovchi sinfdoshining dadasi bo‘lib, u so‘zlovchi avval egallagan lavozimni egallagan edi. Muallif Doktor Uyinklifni tanishtirish uchun aniqlovchi ergash gap ishlatmasdan, attributiv modifikatorni, buning ustiga ajratilgan holda qo‘llab, bu kontekstda tejamkorlik tamoyilidan foydalandi va sodda gap chegarasida aytilishi kerak bo‘lgan mazmunni ifodaladi. Bu o‘rinda bu modifikatorni ajratib o‘tirmay, pre-pozitiv modifikator tarzida ishlatish ham mumkin edi. Ammo muallifga birinchi variant ko‘proq yoqqan ko‘rinadi. Chunki bu o‘rinda mantiqiy urg‘u Doktor Uyinklifga emas, balki so‘zlovchining qandaydir bir izdoshi borligiga qaratilgan edi. Aniqrog‘i bu pozitsiyada bo‘lgan shaxslar yolg‘iz emas va Dr.Uyinklif so‘zlovchidan ham avval o‘sha vazifada bo‘lganligini bilish mazkur kontekstda so‘zlovchi uchun juda muhim, chunki bu amal yoki lavozim obro‘li lavozim bo‘lsa, so‘zlovchiga obro‘ keltiradi, agar bu obro‘ maqtanishga arzimaydigan ish bo‘lsa ham so‘zlovchiga obro‘ keltiradi, chunki bu ishni bajarishga kirishgan uning o‘zi emas, balki boshqa odamlar ham bo‘lgan.

2. *With her elder and younger sisters she lived now in the house of Timothy, her sixth and youngest brother on the Bayswater Road* (Attr.) (J. Galsworthy. To let, p. 237).

Ushbu misolda so‘zlovchi ko‘p a‘zoli oilaga mansub ekanligi bayon vaqtida ko‘rinib turibdi. U o‘zining opalari (elder sisters) va singillari (younger sisters) bilan Timotinikida yashardi. Xuddi shu yerda o‘quvchining ongida “Bular necha kishi o‘zi?” degan savol tug‘ilishi tabiiy. Shuni payqagan so‘zlovchi gapda Timatidan keyin “oltinchi” modifikatorni keltiradi. Lekin bu modifikator barcha savollarga javob berish o‘rniga, yana bir savolni keltirib chiqarardi,

ya'ni Timati oltinchi o'g'ilmi yoki oilada oltinchi a'zomi? Bu savolga biz Timati oilada oltinchi a'zo bo'lsa kerak deb javob beramiz. Uning 5 nafar opa-singillari bor bo'lgan bo'lsa kerak deb taxmin qilamiz. Bunday javob tanlashimiz lingvokulturologik omillar asosida amalga oshiriladi. Negaki inglizlarda ko'p oilalilik kuzatilmaydi. Ularda 6 nafar farzand ham juda ortiqcha, ko'p. Shuning uchun beshta qiz va oltita o'g'il bu oddiy ingliz oilasi uchun fantastik natija bo'lar edi.

3. *He came in with a large parcel under his arm* (Adv.) (Collins W. The woman in white. p. 261).

Navbatdagi misolda gapdagi ish-harakat bajaruvchisi qo'ltig'ida katta posilka bilan kelganligi tasvirlanadi. Bu yerda gapning davomi modifikator bo'lib, qahramon tomonidan bajarilgan ish-harakatning qay tarzda bajarilganligi tasvirlanadi. Nima uchun bu modifikator ishlatilgan. O'sha posilka shu qadar muhimmi? Uni anchadan beri kutishayotganmi? Yoki buning ikkinchi sababi ham bor, unga ko'ra u bu yerga har kuni so'ppayib, ikki qo'li cho'ntagida kirib kelardi. Bu oddiy holga aylanib qolgan edi. Bugun esa u nimagadir qo'ltig'ida bitta posilka bilan kirib keldi va aynan shu posilka uning kirib kelish faktiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirib yuborgan. Modifikatorlarning roli aynan bir qarashda oddiy tuyilgan momentlarda implisit ma'noni aniqlashtirish maqsadida ishlatilishida ko'riladi (15, 114).

4. *With his face buried in his hands, he did not see her enter the room* (Adv.) (R. Keating).

To'rtinchi misolda esa subyektning juda qayg'uli, boshi qotgan nima qilishni bilmay turgan bir holati tasvirlangan. Mana shu holatning natijasida, u ayolning xonaga kirganini sezmedi. Ko'zi ochiq bo'lsa, ko'rardi, sezardi, ammo u yuzini kafti bilan berkitib olgan va u holda ayol tugul Azroil kelsa ham bilmas edi. Bu modifikator erkakning holati qanday natijaga olib kelgani modifikator bilan ifodalangan.

5. *Nicholas lay there, his brow still contracted, filled with perplexity and confusion* (Adv.) (A. Cronin, The Citadel. p. 262).

Beshinchi misolda esa qahramonning — Nikolasning yotgan holati tasvirlangan. U shunchaki yotar edi, uxlamagan edi. Agar uxlaganda shunchaki uxlati der yoki umuman hech narsa yozmas edi, chunki odatiy narsalar haqida yozish keraksiz ish. Lekin bu yerda muhim narsa, o'zining uxlashi emas, uxlamasligi. Nega u uxlamayapti? Aniqrog'i u uxlay olmayapti. Boshida ming xil xayol, boshi qotgan, ko'zlari biroz qisilgan, bir qarorga kela olmayapti, miyasiga tuzukroq bir fikr kelmayapti. Xonaga kirganlar uni shu holda ko'rishdi. Bu yerda ko'rsatilgan oddiy holatni bildirish uchun muallif ko'plab bir katta, ko'p so'zli so'z birikmasi shaklidagi modifikatordan foydalangan.

6. *The crowd was now in constant uproar, yelling, gesticulating, besucking and reviling with Latin intensity* (attribute) (A. Cronin, The Citadel, p. 112).

Inglizchadagi oltinchi gapda esa olomonning holati tasvirlangan. Asosiy gap: *The crowd was no in constant uproar*. Endi olomonning shovqinini bosib bo'lmay qoldi. Holat tushunarli.



Shovqin qandaydir norozilik maqsadida, olomonning aksariyat qismi hamfikir, agar biror norasmiy lider chiqib “Ur!” deydigan bo‘lsa, olomonni to‘xtatib turgan odamlarning holiga voy. Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi. Xo‘sh bu qanaqa shovqin? U rostan ham juda xavflimi? Yo‘q. Gap bu shovqin-suronning xarakterida ya‘ni qichqiriqlar, qo‘l harakatlari, ehtirolarni kitobda yozib bo‘lmaydigan shakllarda baland ovoz bilan ifodalanishi endi politsiyaga ham yoqavermaydigan holatni yuzaga keltirgan. Mana shu boshqarib bo‘lmaydigan olomon yozuvchi tomonidan quyidagi modifikator bilan ifodalangan: *yelling, gesticulating, beseeching and reviving with latin intensity*.

7. *It was a wide white building, one-storey high* (Attr.) (M. Sanborn, p. 162).

8. *She does not change — except her hair* (Obj.) (J. Galsworthy, To let, p.237).

9. *A silver tray was brought, with German plums* (Obj.) (J. Galsworthy, To let, p. 285).

10. *Huckleberry Finn was there, with his dead cat* (obj.) (M.Twain, Huckleberry Finn, p. 39).

Ingliz tilida berilgan 7-8-9-10-misollardagi to‘ldiruvchi vazifasini berib keluvchi gap bo‘laklari mos keluvchi modifikatorlarga ega bo‘lib, ular o‘sha gaplarda ifodalangan mazmunning to‘laqonli bo‘lishiga xizmat qilgan.

Yuqorida ingliz va o‘zbek tilida keltirilgan modifikatorlar gapda aniqlovchi, to‘ldiruvchi va hol vazifasida kelgan bo‘lib, ular o‘zlaridan oldin kelgan gap bo‘lagining, bir xususiyatini, bir belgisini aniqlashga xizmat qilmoqda. Ular ayrim paytlarda faqat aniqlovchi yoki to‘ldiruvchi vazifasini bajaruvchi so‘zni emas, balki butun gapni modifikasiya qilad (9, 118).

Masalaning murakkabligi shundaki, modifikatorlarning gap tarkibida ajratib olish usuli, tartibi va pozitsiyasi hamma vaqt ham bir xilda bo‘lmaydi. Masalan, o‘zbek tilida:

1. *U bukchayib eshikdan kirganda, mezbonlar (aka-uka) yengil kiyimda baland ayvonning bahavo yeriga qo‘yilgan stolning ikki yog‘ida xomush o‘tirishar edi* (A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari, 24-bet).

2. *Yumshoqroq go‘shdan (lahm) olib, ko‘zi yirik go‘sh qiymalagichdan o‘tkazdi* (T. Jo‘raev. Arvohlar tunda izg‘iydi, 281-bet).

3. *Mana Orzixon (kelinchak) onasining ra‘yiga qarab go‘shni bir qishloqqa uzatildi* (S. Zunnova, Hikoyalar, 53-bet).

4. *Do‘stlari ularni sevib, ikki vatan bulbullari, deyishadi* (Turob To‘la, Pyesalar, 134-bet).

5. *Manavi anjir, shaftolidan azonlab bir tog‘ora uzib qo‘yganman, muzdekkina, birga baham ko‘ramiz* (R. Rahmonov. Sevgi qarimas, 82-bet).

6. *Sodir temirchi degan bor, firqa* (G‘.G‘ulom, Hikoyalar, 163-bet).

Bu yerda har ikki guruhga uchtadan misol berilgan. Birinchi tipda (1, 2, 3) modifikatorlar gapda ajratilgan bo‘lak sifatida kelsa,

ikkinchi uchta gapda esa (4,5,6) modifikator izohlanayotgan bo‘lakka nisbatan distant pozitsiyada kelganda, ular distant holdagi ajratilgan sifatlovchilar, ilovali konstruksiyalar sifatida ham, ba’zan esa to‘liqsiz va nominativ gaplar sifatida ham baholanishi mumkin.

Modifikatorlarning asosiy belgilaridan biri — gapning oxiridan o‘rin olishidir. Bu esa modifikatorlarning pragmatik funksiyasini, ya’ni ta’kidlash, kuchaytirish, emotsional va uslubiy bo‘yoq berishidir.

Axborot nazariyasiga ko‘ra, axborot zanjiri uzun, ko‘p elementli bo‘lganda, ko‘pincha, zanjir oxiridagi elementlar axborotni qabul qiluvchilarda — **receiver**da yaxshi esda qoladi. Undagi intonatsiyaning qanday bo‘lishidan qat’i nazar axborotning oxirgi qismi eng muhim qismi sifatida qabul qilinadi (6, 224). Modifikatorlarning gap oxirida yoki ma’lum qismlar orasida distant holatida kelishi nisbatan ko‘proq bo‘lib, bu odatda asosiy gapning qurilishi, mazmuni, logik urg‘u olish-olmasligi bilan bog‘liq.

Yuqorida biz an’anaviy grammatikada gapning ajratilgan bo‘laklari, deb nom olgan qismlari haqida eslatib o‘tdik. Biz bu kabi bo‘laklarni mazkur maqolada distant modifikatorlar, deb nomladik. Distant modifikatorlar ingliz va o‘zbek tillarida juda ko‘p ishlatiladi, deb aytish qiyin, lekin uchrab turadi va bas, ular uchrab turar ekan, ularni mos keluvchi nom bilan atash lozim deb topdik. Shuning uchun distant modifikator termini juda mos keladi.

Distant modifikatorlarining gap oxirida kelgandagi nisbiy mustaqilligi, ta’kidlash, bo‘rttirish bo‘yoqlari kuchli bo‘ladi. Post-pozitiv holatda kelgan modifikatorlar yoki post-pozitiv modifikatorlarni osongina farqlash mumkin. Ularni chegaralashda ba’zan punktuatsiyaga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

Masalan:

1. *Halima kiygan ko‘ylak (chiroyli) o‘ziga yarashibdi. Halima kiygan ko‘ylak o‘ziga juda yarashibdi, chiroyli.*

2. *Uning qo‘lida saralab olingan gul (qip-qizil) bor edi. Uning qo‘lida saralab olingan gul bor edi, qip — qizil.*

Ularni farqlash og‘zaki nutq faktlari tahlilida yanada murakkablashadi. Chunki **distant** modifikatorlar boshqa modifikatorlar kabi axborot tizimiga ega.

Ingliz tilida post-pozitiv modifikatsiyaning quyidagi ifoda vositalari mavjud:

1) predlogli gruppalar (predlog + ot; predlog + olmosh; predlog + gerundiy) (2, 155),

2) sifat va obyektiv so‘z birikmalari,

3) sifatdosh va sifatdosh yadroli so‘z birikmalari,

4) infinitiv va infinitiv yadroli so‘z birikmalari,

5) infinitiv va gerundiylari peridikativ qurilmalar,

6) substantiv so‘z brikmalar,

7) bog‘lovchili birikmalar,

8) ravishlar,

9) sonlar,

10) ergash gaplar (4,200).

Quyida tarkibida turli modifikatorli gaplarni misol tarzida keltirishimiz mumkin:

1) *The air of the room chilled his shoulders* (otli soʻz birikma) (J. Joyce, *Ulysses*, p. 24);

2) *The first business in the tailor's workshop was to fight the fire* (otli soʻz birikma) (A. Coppard, *Stories*, p. 41);

3) *Nowadays people know the price of everything and the value of nothing* (olmosh) (O. Wilde. *Selected works*, p. 78);

4) *He had that dislike of being stared at which comes on geniuses late in life, and never leaves the commonplace* (gerundiy) (O. Wilde. *Selected works*, p. 192);

5) *My reason for coming to Iping was a desire for solitude*. (gerundiy) (H. Wells. *The Invisible man*, p. 103);

6) *Andrew entered up the case with a warm sense of having been honored* (gerundiy) (A. Cronin. *The Citadel*, p. 216);

7) *One might not feel attracted by most of the people present*. (sifat) (R. Aldington. *The Death of a Hero*, p. 89);

8) *The downgrading form is added to material capable of standing as non-minimal sentence element or sentence* (sifat) (R. Aldington. *The Death of a Hero*, p. 95);

8) *The poorest girl alive can choose between ragpicking and flowerselling, according to her taste*. (sifat) (B. Shaw. *Pigmalion*, p. 240);

9) *We have tried to count all the examples in each of the texts examined* (sifatdosh) (Ch. Fries. *The structure of the sentence*, p. 219);

10) *His desire to see the boy was extremely keen* (infinitiv) (I. Murdoch. *The Diplomat*, p. 239).

Yuqorida keltirilgan modifikatsiyali holatlar (1–10-gaplarda) yozma va ogʻzaki nutqda ancha keng ishlatiladi. Ular yuqorida koʻrib chiqilgan aniqlovchili modifikatorlardan biroz farq qiladi. Gap shundaki, maʼlum shaklda kelayotgan va izohlanayotgan qismga nisbatan shakllangan modifikator sifatida qoʻllaniladi.

Bu modifikatorlarni odatdagi gap boʻlaklari tartibi boʻyicha izohlanayotgan soʻz yoki soʻz birikmalaridan oldin ham qoʻllash mumkinligi ularni gapda soʻz tartibining buzilishi hodisasiga ham yaqinlashtiradi. Bu, shubhasiz, oldingi inversiya holatidan farq qiladi. Yana shuni aytish kerakki, agar izohlanayotgan soʻz gapda oʻzidan boshqa modifikatorlariga ega boʻlsa, yuqoridagi kabi oʻzgartirish boʻyicha qoʻllash qiyin boʻlib qoladi (12, 260).

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan misollar va tahlil natijalari asosida shu narsani xulosa oʻrnida aytish mumkinki, modifikatorlar maʼnosi asosiy gap mazmuni umumiy chizigʻidan boshqa yoʻnalishda ekanligini ham aniq koʻrsatadi. Soʻzlovchining kommunikativ niyati, gap hajmiga qoʻshilgan qatʼiy talab va tilni tejash tamoyillari birgalashib ayrim maʼnolarni distant tarzda, ayrimlarni esa kontakt tarzda modifikatsiyalab diskursda voqelanadigan axborot hajmini toʻlaroq saqlash vazifasini bajarishga yordam beradi.

Harakat modifikatorlari nutq mahsuloti yaratish jarayonida soʻzlovchi yoki yozuvchiga maʼlum boʻlgan dunyoni konseptuallashtiradi va oʻsha dunyoning lisoniy tuzilishini tasvirlaydi. Shuning uchun dunyoning lisoniy tasviri har bir soʻzlovchi yoki yozuvchi tomonidan oʻziga xos boshqacha, farqli yaratiladi, hatto ular bir tilda soʻzlashsa ham. Til birliklari tomonidan tasvirlangan ish-harakat real borliqda amalga oshirilgan boʻlib, u soʻzlovchi yoki nutq obyektini boʻlib xizmat qiladigan boshqa shaxsning konseptuallashtirilgan dunyosi oʻrtasidagi farqni yoʻqotib yubora olmaydi. Farqni kamaytirish uchun turli modifikatorlar ishlatiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуазизов А.А. ва б. Тилшуносликка кириш. 2-қисм. Лексикология ва семасиология. Грамматика. — Тошкент: Ўқитувчи, 1999. — 57 б.
2. Бархударов Л.С. Очерки по морфологии современного английского языка. — М.: Высшая школа, 1975. — 155 с.
3. Болдырев Н.Н. Язык как интерпретирующий фактор познания // Теоретические основы языковой интерпретации. — Тюмень: ТГУ, 2016. — 81 с.
4. Блох М.Л. Теоретические основы грамматики. — М.: Академия, 2002. — 200 с.
5. Goldberg A. Constructions: A Construction grammar approach to argument structure. — Chicaf: University of Chicago Press, 2005. — 280 p.
6. Iriskulov M., Tukhtasinov I., Kuldashev A. Theoretical English Grammar. — Т.: Uzkitobsavdonashr, 2020. — 224 p.
7. Kobrina V.A. et. al. Theoretical Grammar of English. — Moscow, 2013. — 400 p.
8. Кубрякова Е.С. Язык и знание. — М., 2006. — 750 с.
9. Нурмонов А. Ўзбек тилида гапнинг семантик структураси. — Т.: Фан, 2000. — 380 б.
10. Pei A Mario. A Dictionary of Linguistics. Peter Owen limited. 1990. — 238 p.
11. Teun A. van Dijk. Discourse as structure and process. — London: Sage, 1997. — 190 p.
12. Thomas E. Payne. Understanding English Grammar. — Oxford University Press, 2008.
13. Умархўжаев М.Ж. Умумий тилшунослик. — Андижон: Жахон интер принт, 2010. — 84 б.
14. Хамзаев С.А. Инглиз ва ўзбек тилларидаги иккиламчи предикацияли қурилмаларнинг синтактик, семантик ва когнитив хусусиятлари. Фалсафа доктори (PhD) автореферати. — Т., 2018. — 46 б.
15. Юсупова Ш.Б. Синтактик конструкцияларнинг ривожланиш тарихи. Монография. — Т.: УзМХ, 2018. — 114 б.

**References**

1. Abduazizov A.A. va b. *Tilshunoslikka kirish. Leksikologiya va semasiologiya. Grammatika* (Introduction to Linguistics. Lexicology and semasiology. Grammar), Toshkent: Ukituvchi, 1999, 57 p.
2. Barxudarov L.S. *Ocherki po morfologii sovremennogo anglijskogo yazy`ka* (Essays on the morphology of modern English), Moscow: Vy`sshaya shkola, 1975, 155 p.
3. Boldy`rev N.N. *Yazy`k kak interpretiruyushhij faktor poznaniya – v sb. teoreticheskie osnovy` yazy`kovej interpretacii* (Language as an interpretive factor of cognition – in the collection of theoretical foundations of language interpretation), Tyumen: TGU, 2016, 81 p.
4. Blox M.L. *Teoreticheskie osnovy` grammatiki* (Theoretical foundations of grammar), Moscow: Akademiya, 2002, 200 p.
5. Goldberg A. *Constructions: A Construction grammar approach to argument structure*, Chicago: University of Chicago Press, 2005, 280 p.
6. Iriskulov M, Tukhtasinov I, Kuldashev A. *Theoretical English Grammar*, Tashkent: Uzkitobsavdonashr, 2020, 224 p.
7. Kobrina V.A. et. al. *Theoretical Grammar of English*, Moscow, 2013, 400 p.
8. Kubryakova E.S. *Yazy`k i znanie* (Language and knowledge), Moscow, 2006, 750 p.
9. Nurmonov A. *Uzbek tilida gapning semantik strukturasi* (The semantic structure of the sentence in Uzbek), Tashkent: Fan, 2000, 380 p.
10. Pei A Mario. *A Dictionary of Linguistics*, Peter Owen limited, 1990, 238 p.
11. Teun A. van Dijk. *Discourse as structure and process*, London: Sage, 1997, 190 p.
12. Thomas E. Payne. *Understanding English Grammar*, Oxford University Press, 2008.
13. Umarxuzhaev M.Zh. *Umumij tilshunoslik* (General linguistics), Andijan: Jahon inter print, 2010, 84 p.
14. Khamzaev S.A. *Ingliz va uzbek tillaridagi ikkilamchi predikaciyali kurilmalarning sintaktik, semantik va kognitiv xususiyatlari* (Syntactic, semantic and cognitive features of secondary predicate constructions in English and Uzbek languages): Extended abstract of candidate`s thesis, Tashkent, 2018, 46 p.
15. Yusupova Sh.B. *Sintaktik konstrukciyalarning rivozhlanish tarixi* (Developmental history of syntactic constructions), Tashkent: UzMX, 2018, 114 p.